

**Nodirbek Nosirjon o'g'li Xabibillayev,**  
*University of Business and Science*  
 Til va adabiyot ta'limi kafedrası dotsenti v.b.,  
 Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
 G-mail: [morfemik1997@gmail.com](mailto:morfemik1997@gmail.com)  
 ORCID: 0009-0006-6056-5830

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20251753>

## **O'ZBEK AMALIY TILSHUNOSLIGI MUSTAQIL ILMIY YO'NALISH SIFATIDA: SHAKLLANISH, METODOLOGIYA VA ZAMONAVIY AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek amaliy tilshunosligining mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi, rivojlanish dinamikasi, metodologik asoslari va boshqa lingvistik yo'nalishlardan farqli jihatlari tanqidiy tahlil qilingan. Tadqiqotda yo'nalishning originalligi milliy til tuzilishi hamda substansial-pragmatik yondashuvda ko'rinishi bayon etilgan. Baxtiyor Mengliyevning ilmiy qarashlari va maktabi bu borada jiddiy burilish yasay olayotganligi asosli dalillar, iqtiboslar bilan asoslangan. Ushbu yo'nalishning bugungi kundagi ilmiy-ijtimoiy ahamiyati raqamli texnologiyalar, ta'lim va til siyosati nuqtayi nazaridan baholangan, dolzarb muammolar (amaliy tatbiqning sustligi, moliyalashtirish yetishmovchiligi, xalqaro integratsiya zaifligi) ochiq tanqidiy ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi – yo'nalishni ilmiy asosda, tanqidiy nuqtai nazardan yoritish, uning originalligini ochish. Tadqiqotning obyekti o'zbek amaliy tilshunosligining nazariy-amaliy asoslari hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti shakllanish dinamikasi, metodlari, ijtimoiy ta'siri va cheklovlaridir.*

***Kalit so'zlar:** o'zbek amaliy tilshunosligi, applied linguistics, substansial-pragmatik yondashuv, til yaxlit sistema, milliy korpus, lingvistik ekspertologiya, lingvoma'naviyatshunoslik, amaliy tatbiq muammolari.*

## **УЗБЕКСКАЯ ПРИКЛАДНАЯ ЛИНГВИСТИКА КАК САМОСТОЯТЕЛЬНОЕ НАУЧНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ: СТАНОВЛЕНИЕ, МЕТОДОЛОГИЯ И СОВРЕМЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ**

***Аннотация.** В данной статье критически анализируются становление узбекской прикладной лингвистики как самостоятельного научного направления, динамика её развития, методологические основы и отличительные особенности по сравнению с другими лингвистическими направлениями. В исследовании раскрывается оригинальность данного направления, проявляющаяся в структуре национального языка и субстанциально-прагматическом подходе. На основе аргументированных доказательств и цитат показано, что научные взгляды и школа Бахтияра Менглиева стали серьёзным поворотным этапом в развитии данной области. Современное научно-социальное значение этого направления оценивается с точки зрения цифровых технологий, образования и языковой политики, а также открыто рассматриваются актуальные проблемы, такие как слабость практического внедрения, недостаточное финансирование и низкий уровень международной интеграции. Цель исследования — осветить данное направление с научной и критической точки зрения, раскрыть его оригинальность. Объектом исследования являются теоретико-практические основы узбекской прикладной лингвистики. Предмет исследования составляют динамика формирования, методы, социальное влияние и ограничения данного направления.*

**Ключевые слова:** узбекская прикладная лингвистика, applied linguistics, субстанциально-прагматический подход, язык как целостная система, национальный корпус, лингвистическая экспертология, лингводуховедение, проблемы практического внедрения.

## UZBEK APPLIED LINGUISTICS AS AN INDEPENDENT SCIENTIFIC FIELD: FORMATION, METHODOLOGY, AND CONTEMPORARY SIGNIFICANCE

**Abstract.** This article critically analyzes the formation of Uzbek applied linguistics as an independent scientific field, its developmental dynamics, methodological foundations, and distinctive features in comparison with other linguistic disciplines. The study highlights the originality of this field as reflected in the structure of the national language and the substantial-pragmatic approach. It is substantiated with well-grounded arguments and quotations that the scholarly views and academic school of Bakhtiyor Mengliyev have brought about a significant turning point in this sphere. The contemporary scientific and social significance of this field is evaluated from the perspectives of digital technologies, education, and language policy, while current issues such as weak practical implementation, insufficient funding, and limited international integration are critically examined. The aim of the research is to present this field from a scientific and critical perspective and to reveal its originality. The object of the study is the theoretical and practical foundations of Uzbek applied linguistics. The subject of the research includes its formation dynamics, methods, social impact, and limitations.

**Keywords:** Uzbek applied linguistics, applied linguistics, substantial-pragmatic approach, language as an integral system, national corpus, linguistic expertology, linguospiritual studies, problems of practical implementation.

**Kirish.** So‘nggi o‘n yilliklarda tilshunoslik fanida kuzatilayotgan muhim tendensiyalardan biri – tilni faqat ichki tizim sifatida emas, balki ijtimoiy ehtiyojlar, kommunikativ muhit va texnologik jarayonlar bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida tadqiq etishga bo‘lgan intilishning kuchayishidir. Bu holat jahon tilshunosligida “Amaliy tilshunoslik” (applied linguistics) nomi bilan shakllangan yo‘nalishning doirasi va mavqei kengaytiribgina qolmay, o‘zbek tilshunosligida ham mazkur yo‘nalishni qayta ko‘rib chiqish, uning predmeti va metodologiyasini aniqlashtirish zaruratini yuzaga chiqardi.

Mustaqillikdan keyingi o‘zbek tilshunosligida nazariy va amaliy yo‘nalishlar o‘rtasidagi bo‘shliq keskinlashdi. An‘anaviy tilshunoslik (strukturalizm, generativ grammatika, kognitiv yo‘nalishlar) tilning ichki qonuniyatlarini tavsiflash bilan cheklanib qoldi, ammo jamiyatning real ehtiyojlari – davlat tili siyosati, ona tili ta‘limidagi inqiroz, terminologik bo‘shliqlar, raqamli texnologiyalar (sun‘iy intellekt, avtomatik tarjima, nutq sintezi, grammatik tekshiruvchilar) uchun lingvistik baza yaratish – amaliy yondashuvni talab qildi. O‘zbek amaliy tilshunosligi aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan yo‘nalish sifatida shakllandi. U tilni nafaqat tavsiflash, balki uni jamiyat, texnologiya va ma‘naviyat xizmatiga moslashtirish vositasi deb ko‘radi. Yo‘nalishning dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

O‘zbek tilining raqamli “savodsizligi” (korpus, analizatorlar yetishmovchiligi);

Ona tili ta‘limidagi eskirgan usullar (nutqiy ko‘nikmalar baholash tizimi zaif);

Sud-huquq, media va reklama sohasidagi lingvistik ekspertiza talabi;

Global raqobatda tilning nufuzini oshirish zarurati.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda zamonaviy tilshunoslik chuqur transformatsiya davridan o‘tmoqda, klassik tasviriy yondashuvdan amaliy texnologiyalarni faol joriy etishga o‘tmoqda. Bu texnologiyalar milliy tilni global axborot makoniga integratsiya qilish imkonini beradi. Mustaqil ilmiy soha sifatida shakllangan o‘zbek amaliy lingvistikasi – bu ijtimoiy, texnik va ta‘limiy vazifalarni hal qilishga

yo'naltirilgan murakkab fanlar tizimi. Sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarining tez rivojlanishi sharoitida amaliy tadqiqotlarning nazariy asoslari va metodologik ta'minoti davlat tilini saqlash va rivojlantirish uchun strategik ahamiyatga ega bo'lmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbek tilshunosligida amaliy muammolarning dastlabki yoritilishi mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida emas, balki nazariy tilshunoslikning ichki ehtiyojlari va xulosalarini "tatbiq etish" shaklida namoyon bo'lgan. Bu bosqichda imlo, talaffuz, terminologiya, lug'atchilik, til o'qitish masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida emas, balki umumiy til tizimini tavsiflash va normativlashtirish jarayonining yordamchi unsurlari sifatida qaraldi.

Mazkur yondashuvning metodologik asosi shundan iborat ediki, tilning nazariy tavsifi mukammal bo'lsa, amaliy masalalar o'z-o'zidan hal bo'ladi, degan qarash ustuvor edi. Natijada amaliy yo'nalishlar ko'pincha:

tayyor nazariy modellarga suyandi;

real kommunikativ jarayonlarni ikkilamchi omil sifatida ko'rdi;

empirik tekshiruvdan ko'ra normativ xulosalarga tayanishga moyil bo'ldi.

Bunday holat muayyan davr sharoitida ilmiy jihatdan oqlanishi mumkin edi. Chunki tilshunoslikning asosiy vazifasi tilning ichki tizimini, strukturaviy va semantik munosabatlarini aniqlashdan iborat bo'lgan. Ammo aynan shu yondashuv amaliy masalalarning o'ziga xos murakkabligini yetarli darajada ochib bera olmadi.

Masalan, imlo va talaffuz muammolari faqat fonetik yoki morfologik qonuniyatlar bilan emas, balki:

nutqiy odat,

ijtimoiy muhit,

ta'lim darajasi,

kommunikativ vaziyatkabi omillar bilan ham bevosita bog'liq ekanligi tobora ravshanlashdi.

Nazariy tilshunoslikning klassik metodlari esa bu omillarni to'liq hisobga olish imkonini bermas edi.

Shu bois mazkur bosqichning asosiy cheklovi shundaki, til real ishlanish jarayonida emas, balki "ideal model" sifatida tasavvur qilindi. Amaliy masalalar esa ko'pincha nazariy xulosalarni tasdiqlovchi yoki ularni normativ shaklga soluvchi yordamchi vazifa bilan cheklanib qoldi.

O'zbek amaliy lingvistikasining shakllanish jarayoni tasodifiy emas; u asrlar davomida rivojlangan filologik an'anaga tayangan bo'lib, nazariya va amaliyotni doimiy uyg'unlashtirib kelgan. Tadqiqotchilar bir nechta asosiy bosqichlarni ajratib ko'rsatadi, har biri zamonaviy fan metodologiyasiga o'ziga xos xissa qo'shgan.

**Qadimgi va o'rta asrlar: lingvistik pragmatizmning ildizlari.** O'zbek tilshunosligining amaliy jihatlarini asosi hali o'rta asrlarning dastlabki davrida yaratilgan. Shu borada eng muhim voqea XI asr bo'lib, u Mahmud Koshg'ariy faoliyati bilan bog'liq. Uning jahonga mashxur asari "*Devonu lug'ot-it turk*" ("Turk lahjalari to'plami") asosan turk olamida amaliy lingvistikaning birinchi fundamental tajribasi hisoblanadi. Koshg'ariy faqat leksik birliklarni qayd etib qolmagan, balki solishtirma tahlil, dialektologik xaritalash va statistik kuzatuv metodlarini qo'llagan, bu esa bugungi kunda amaliy tadqiqotlarning asosiy vositasi hisoblanadi. Uning ishlari aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lib – arab tilida so'zlashuvchi dunyoni turk tillarining boyligi bilan tanishtirish, bu esa interkultural kommunikatsiya va lingvodidaktika sifatida baholanadi.

Timuriylar davrida lingvistik fikr yangi turtki oldi. Alisher Navoiy “*Muhokamat ul-lug‘atayn*” asarida solishtirma leksikologiya va stilistika masalalarini ko‘tarib, amalda qadimgi o‘zbek tilini (chig‘atoy tilini) murakkab falsafiy va ilmiy kategoriyalarni ifodalash vositasi sifatida asoslab berdi. Ushbu davr leksikografiya gullab-yashnagan davr bo‘lib, ko‘plab lug‘atlar yaratilgan, ular tilni qoliplashtirish va o‘qitishga xizmat qilgan.

**Milliy uyg‘onish davri (Jadidizm) va sovet davri maktabi.** XIX–XX asrlar oxirida jadidlar harakati, Abdurauf Fitrat, Elbek va Qayum Ramazon kabi ma‘rifatchilar boshchiligida, amaliy filologiya rivojida yangi bosqichni boshladi. Ushbu davrning asosiy vazifasi imlo islohati, ommaviy darsliklar yaratish va zamonaviy ta‘lim ehtiyojlari uchun terminologiyani birlashtirish bo‘ldi. Bu sa‘y-harakatlar normativ lingvistika va yozuv nazariyasi asoslarini yaratdi.

Sovet davrida (1924–1991) o‘zbek tilshunosligi birlashdi. Akademik grammatikalar, ko‘p jildli izohli lug‘atlar va dialektologik atlaslar yaratildi. Ushbu bosqichning muhim yutug‘i – tajribaviy fonetika rivojlanishi, tilni o‘rganishda statistik usullarni joriy etish va 1956 yilda kirill yozuvi asosida imlo qoidalarini ishlab chiqishdir. Garchi ideologik cheklovlar ba‘zi yo‘nalishlarga ta‘sir qilgan bo‘lsa-da, kelajakdagi amaliy tadqiqotlar uchun texnik baza aynan shu davrda shakllangan.

**Zamonaviy bosqich: mustaqillik va raqamli inqilob.** 1991 yilda mustaqillik bilan o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi amaliy lingvistika uchun kuchli ijtimoiy ehtiyoj yaratdi. Lotin yozuviga o‘tish, bozor iqtisodiyoti uchun yangi terminologik tizimlar yaratish va tilni kompyuter tizimlariga integratsiya qilish ehtiyoji korpus va kompyuter lingvistikasi rivojlanishining katalizatori bo‘ldi.

Davr	Xronologik doira	Asosiy yutuqlar va tadqiqot yo‘nalishlari
Qadimgi turk davri	XI asr	Solishtirma leksikografiya, dialektologiya (M. Koshg‘ariy)
Oltin davr (Timuriylar)	XV–XVI asr	Stilistik tahlil, tarjima nazariyasi, lug‘atlar (A. Navoiy)
Jadidlar davri	XX asr bosh	Yozuv islohati, darsliklar yaratish, terminologiya
Sovet davri	1924–1991	Tajribaviy fonetika, imlo, akademik lug‘atlar

Zamonaviy o‘zbek amaliy tilshunosligi ichki ijtimoiy-iqtisodiy buyurtma (davlat tili qonuni, ta‘lim islohotlari, raqamlashtirish) asosida shakllandi. Ushbu yo‘nalishni shartli ravishda uch bosqichga bo‘lish mumkin:

Birinchi bosqich (1990-yillar oxiri – 2000-yillar boshlari): **asos qo‘yish davri.**

Mustaqillikning dastlabki yillarida alifboning o‘zgarishi, termin yaratish, ona tili darsliklarini yangilash kabi amaliy muammolar nazariy tadqiqotlardan ustun kela boshladi. Bu davrda Baxtiyor Mengliyevning nomzodlik dissertatsiyasi (“Morfologik vositalarning ma‘naviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari”, 1996) muhim burilish yasadi. An‘anaviy “faqat ayrim grammatik shakllar sintaktik vazifa bajaradi” qarash rad etilib, barcha morfologik vositalarning pragmatik potentsiali ochildi. Bu g‘oya o‘zbek grammatikasiga yangi nafas berdi, ammo hali “amaliy tilshunoslik” deb atalmagan edi.

Ikkinchi bosqich (2000-yillar o‘rtasi – 2015-yillar): **nazariy asoslash va institutsionalizatsiya boshlanishi.**

Baxtiyor Mengliyevning doktorlik dissertatsiyasi (“Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar”, 2002) va “Til yaxlit sistema sifatida” (2010) monografiyasida tilni sathlararo integratsiya (fonetika-leksika-grammatika-pragmatika) nuqtai nazaridan modellashtirish konsepsiyasi shakllandi. Shu

davrda o'quv leksikografiyasi, dastlabki korpus tajribalari va lingvoma'naviyatshunoslik g'oyalari paydo bo'ldi. Amaliyotda ona tili ta'limi, tarjima va terminologiya sohasidagi talablar kuchaydi. Biroq, tadqiqotlarning aksariyati hali "javonlarda qolib ketgan" holatda edi (Mengliyevning o'z tanqidi, 2024).

B. Mengliyev X. Nematov bilan birgalikda leksika va grammatikani tizimli o'rganish prinsiplari ishlab chiqdi. Leksik mikrosistemalarni modellashtirish yondashuvi tesaurus va ontologiyalar yaratish uchun zarur. Ayniqsa, o'zbek fe'l kategoriyalarini nutqiy realizatsiya kontekstida tadqiq qilish avtomatik lemmatizatsiya algoritmlari uchun poydevor yaratdi.

Baxtiyor Mengliyevning tanqidiy qarashlari: "O'zbek tilshunosligi bo'yicha hozirgacha ko'p hollarda amaliy ahamiyatsiz, ijtimoiy-iqtisodiy samaradan xoli tadqiqotlar olib borilgan" (Oyina.uz, 2024). "Filologik tadqiqotlar muzey eksponati kabi javonlarda qolib ketsa, uning nima keragi bor?!" "Bozor munosabatlari filologiyaning aniq maqsadli, iqtisodiy foyda ham keltiradigan yo'nalishlarini taqozo qilmoqda". Bu qarashlar yo'nalishni "fan uchun fan"dan "jamiyat uchun fan"ga o'tkazdi.

Uchinchi bosqich (2016-yildan hozirgacha): **mustaqil yo'nalish sifatida institutsionalizatsiya va amaliy tatbiq urinishi.**

O'zbek amaliy tilshunosligining shakllanishi va metodologik asoslanishida Baxtiyor Mengliyev ilmiy qarashlari alohida e'tiborga loyiq. Biroq bu o'rinda masalaga shaxsni ulug'lash nuqtayi nazaridan emas, balki ilmiy maktab shakllanishiga qo'shilgan konseptual hissa sifatida yondashish lozim.

Shuningdek, Mengliyev ilmiy yondashuvida amaliy tilshunoslikning ijtimoiy mas'uliyati alohida ta'kidlanadi. Bu yondashuv amaliy tilshunoslikni faqat ilmiy muammo emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sohasi sifatida ko'rsatadi. Aynan shu jihat uning qarashlarini metodologik jihatdan muhim qiladi.

**Metodologiya.** Tadqiqotda quyidagi metodlar kompleks qo'llanilgan:

**1. Tarixiy-tasviriy va periodizatsiya metodi.** Bu metod orqali yo'nalishning "tasodifiy emas, ichki zaruratdan kelib chiqqan" ekanligi isbotlandi. 5 ta asosiy bosqich (Qadimgi turk – Koshg'ariy; Timuriylar – Navoiy; Jadidlar; Sovet; Mustaqillik) va zamonaviy bosqichning 3 davri (1990-yillar oxiri–2000-yillar boshi; 2000-yillar o'rtasi–2015; 2016-yildan hozirgacha) aniqlandi. Jadvalda har bir bosqichning asosiy yutuqlari (lug'atlar, imlo islohoti, akademik grammatikalar, korpus) ro'yxati tuzildi.

**2. Adabiyotlar (kontent) tahlili va tematik kodlash metodi.** Ushbu metod natijasida nazariy tilshunoslikning cheklovlari (faqat "ideal model", empirik emas) va amaliy yo'nalishning yangi paradigmasi ("til qanday ishlaydi?" savoli) aniqlandi. Mengliyev ilmiy maktabining konseptual xissasi (morfologik vositalarning pragmatik potentsiali, sathlararo integratsiya) alohida o'rganildi.

**3. Qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-tahlil metodi.** Ushbu metod natijasida prinsipial farqlar aniqlandi: obyekt (ideal model → real nutqiy faoliyat), savol ("til qanday tuzilgan?" → "til qanday ishlaydi va boshqariladi?"), natija o'lchovi (nazariy mukammallik → amaliy samaradorlik). Bu metod orqali yo'nalishning "mustaqil ilmiy paradigma" sifatida shakllangani isbotlandi.

**Natijalar va muhokama.** 2016-yildan TSUULLda Amaliy filologiya: Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika kafedrasini tashkil etildi. Baxtiyor Mengliyev ushbu kafedraning mudiri sifatida faoliyat yurita boshladi. 2020-yildan Toshkent amaliy fanlar universitetida tadqiqotchi-professor lavozimida faoliyatini davom ettirdi. 2021-yilda "O'zbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktikasi masalalari" xalqaro anjumani o'tkazildi (413 betlik materiallar to'plami). Milliy korpusning asoslari qo'yildi: "O'zbek tilining milliy korpusi" monografiyasi (Mengliyev, Hamroyeva, 2023; oldingi versiyalari 2018). 10 ta mualliflik guvohnomasi (morfologik analizatorlar, sinonim bazasi, orfoepik audiovizual lug'atlar)

olindi. Scopus bazasida 9 ta ilmiy maqola chop etildi. Bu bosqichda yoʻnalish oʻz ilmiy maktabiga ega boʻldi (100 nafar kadr: 24 fan doktori, 66 PhD). Bularning barchasi jam boʻlib Oʻzbek amaliy tilshunosligi yoʻnalishida tub burilish yasadi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, shakllanish “yuqoridan” emas, ichki zaruratdan kelib chiqdi. Ammo muammo moliyalashtirishning sustligi, IT mutaxassislar bilan hamkorlikning zaifligi, natijalar amaliyotga yetarli tatbiq etilmaganligidadir.

Tilshunoslik oldida yuzaga kelgan yangi ijtimoiy va kommunikativ vazifalar amaliy masalalarga boʻlgan munosabatni tubdan oʻzgartirdi. Xususan, tilni ommaviy oʻqitish, davlat tilini normallashtirish, terminologiyani izchil tizimga solish, testologiya va baholash mexanizmlarini ishlab chiqish kabi muammolar nazariy tavsif bilan cheklanib boʻlmasligini koʻrsatdi.

Bu bosqichda asosiy metodologik savol shunday qoʻyildi: til birliklari qanday tuzilgan emas, balki ular real hayotda qanday ishlaydi?

Aynan shu savol amaliy tilshunoslikni alohida ilmiy yoʻnalish sifatida shakllantirish uchun zarur boʻlgan konseptual burilishga olib keldi. Chunki:

tadqiqot obyekti endi faqat til tizimi emas, balki tilning qoʻllanish jarayoni boʻlib qoldi;

tadqiqot metodlari tavsifiylikdan empirik va eksperimental yondashuvlarga siljidi;

ilmiy natijaning qiymati nazariy mukammallik bilan emas, balki amaliy samaradorlik bilan oʻlchila boshlandi.

Bu jarayonda amaliy tilshunoslikning asosiy farqlovchi belgisi yaqqol namoyon boʻldi: u til haqidagi bilimni emas, balki til bilan ishlash mexanizmlarini oʻrganishga yoʻnaltirildi. Boshqacha aytganda, amaliy tilshunoslik tilshunoslik ichidagi “qoʻllanma boʻlim” emas, balki muammoga yoʻnaltirilgan tadqiqot paradigmasi sifatida shakllandi.

Muhim jihati shundaki, bu mustaqillashuv jarayoni avtomatik yoki deklarativ tarzda kechmadi. Aksincha, u:

mavjud nazariy modellarning yetarli emasligini tan olish;

metodologik vositalarni qayta koʻrib chiqish;

fanlararo integratsiyani qabul qilish orqali yuz berdi.

Natijada amaliy tilshunoslikning ilmiy maqomi oʻzgardi: u endi nazariy tilshunoslikdan “kamroq ilmiy” emas, balki boshqa turdagi ilmiy mantiqqa asoslangan yoʻnalish sifatida qarala boshlandi.

Oʻzbek amaliy tilshunosligining mustaqil ilmiy yoʻnalish sifatida shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri fanlararo integratsiyaning kuchayishi boʻldi. Bu jarayon tasodifiy emas, balki amaliy muammolarning tabiatidan kelib chiqqan zarurat edi. Chunki tilning real qoʻllanishi nafaqat lingvistik, balki psixologik, ijtimoiy, pedagogik va texnologik omillar bilan chambarchas bogʻliqdir.

Aynan shu nuqtada amaliy tilshunoslik klassik tilshunoslikdan prinsipial ravishda farqlana boshlaydi. Agar nazariy tilshunoslik til birliklarini tizim sifatida izohlashga intilsa, amaliy tilshunoslik tilning inson faoliyatidagi ishlash mexanizmlarini markazga qoʻyadi. Bu esa:

psixolingvistika (nutqni idrok etish va ishlab chiqarish),

pedagogika (tilni oʻrgatish va baholash),

sotsiologiya (ijtimoiy muhit va til),

axborot texnologiyalari (raqamli resurslar, korpuslar) bilan integratsiyani muqarrar qildi.

Mazkur integratsiya amaliy tilshunoslikni “yigʻma fan”ga aylantirmaydi. Aksincha, u fanlararo maʼlumotlardan foydalanadigan, lekin oʻz tadqiqot mantigʻi va maqsadiga ega boʻlgan mustaqil ilmiy

yoʻnalish sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois bugungi bosqichda oʻzbek amaliy tilshunosligi na nazariy tilshunoslikka boʻysunuvchi yordamchi soha, na alohida fanlarning mexanik yigʻindisi sifatida talqin etilishi mumkin.

Oʻzbek amaliy tilshunosligini ilmiy yoʻnalish sifatida asoslashda eng muhim masalalardan biri – uning originalligini va boshqa lingvistik yoʻnalishlardan prinsipial farqlarini aniqlashdir. Chunki aynan shu masalada koʻpincha metodologik noaniqliklar va soddalashtirilgan talqinlar uchraydi.

Birinchi navbatda, amaliy tilshunoslikni nazariy tilshunoslik bilan “daraja” jihatidan solishtirish ilmiy jihatdan toʻgʻri emas. Bu ikki yoʻnalish bir-biriga nisbatan yuqori yoki quyi emas, balki turli ilmiy vazifalarni bajaradi. Nazariy tilshunoslikning asosiy savoli – til qanday tuzilgan? boʻlsa, amaliy tilshunoslikning markaziy savoli – til qanday ishlaydi va bu jarayonni qanday boshqarish mumkin?

Ikkinchi jihat – tadqiqot obyekti. Amaliy tilshunoslikda obyekt ideal til modeli emas, balki real nutqiy faoliyat, meʼyor, xatolik, variativlik va ularning ijtimoiy oqibatlaridir.

Uchinchi jihat – metodologiya. Amaliy tilshunoslik:

- empirik materialga,
- statistik kuzatuvlarga,
- eksperimental natijalarga tayanadi.

Bu esa uni faqat deskriptiv emas, balki muammoga yoʻnaltirilgan ilmiy yoʻnalish sifatida belgilaydi.

**Oʻzbek amaliy tilshunosligining bugungi dolzarb vazifalari.** Shu maʼnoda amaliy tilshunoslikni sotsiolingvistika yoki kompyuter lingvistikasi bilan tenglashtirish ham toʻgʻri emas. Bu yoʻnalishlar bilan kesishuv mavjud boʻlsa-da, amaliy tilshunoslikning asosiy mezonini – amaliy natijaning ijtimoiy foydaliligidir.

Bugungi kunda oʻzbek amaliy tilshunosligi oldida turgan vazifalar koʻlami nihoyatda keng. Ular orasida:

1. Milliy korpusni toʻliq shakllantirish va ochiq manbaga aylantirish (hozirgi hajm yetarli emas, xalqaro standartlarga yetishmaydi).
2. Sunʼiy intellekt vositalari uchun lingvistik baza (avtomatik tarjima, spellchecker, nutq sintezi – hozircha zaif).
3. Terminologik tizimni raqamlashtirish (IT, biotexnologiya uchun yangi terminlar).
4. Ona tili taʼlimida pragmatik usullarni majburiy joriy etish (eski darsliklar, baholash tizimi eskirgan).
5. Lingvistik ekspertiza institutini rivojlantirish (sud, media uchun).
6. Iqtisodiy samaradorlik: til mahsulotlarini (lugʻatlar, ilovalar) elektron platformalarini shakllantirish – hozircha deyarli yoʻq.

Bu vazifalar amaliy tilshunoslikni faqat akademik doira bilan cheklab qoʻymaydi, balki uni jamiyatning strategik rivoji bilan bogʻlaydi. Shu bois mazkur yoʻnalish bugun nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy masʼuliyatga ega fan sifatida qaralishi lozim.

**Xulosa.** Olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek amaliy tilshunosligi tasodifiy yoki ikkilamchi yoʻnalish emas, balki ijtimoiy ehtiyojlar, ilmiy paradigma va metodologik burilishlar natijasida shakllangan mustaqil ilmiy soha boʻlishida Baxtiyor Mengliyev maktabi markaziy rol oʻynadi. Mazkur yoʻnalishning keyingi rivoji metodologik aniqlikni saqlagan holda fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish, empirik tadqiqotlarni kengaytirish va amaliy natijalarning ijtimoiy samaradorligini

oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Muammo shuki, moliyalashtirish va IT hamkorligi yetishmaydi. Agar hal etilmasa, yo‘nalish nazariyaning soyasida qolib ketishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mengliyev, B., Toirova, G., Ibragimov, J., & Mengliyeva, M. (2024). The necessity of Pareto principle in environmental studies. *E3S Web of Conferences*, 587, 02018. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202458702018>
2. Mengliye, B., Hamroyeva, S., & Abdullayeva, O. (2023). Scopus-based bibliometric analysis on corpus linguistics for the period of 2017-2021. *E3S Web of Conferences*, 413, 03008. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202341303008>
3. Mengliev, B., & Gulyamova, S. (2022). Linguistic modeling of polysemous words for the semantic analyzer of the Uzbek language. *2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK)*, 01–05. <https://doi.org/10.1109/ubmk55850.2022.9919553>
4. Adali, E., Rajabovich, M. B., & Mirdjonovna, K. S. (2022). Comparison of Uzbek-Turkish inflection suffixes. *2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK)*, 424–427. <https://doi.org/10.1109/ubmk55850.2022.9919603>
5. Mengliyev, B., Shahabitdinova, S., Khamroeva, S., Gulyamova, S., & Botirova, A. (2021). The morphological analysis and synthesis of word forms in the linguistic analyzer. *Journal of Language and Linguistic Studies*, 17(1), 558–564. <https://doi.org/10.52462/jlls.37>
6. Paducheva, E., Rakhilina, B., Kobritsov, T., Reznikova, Bahodirovna, A. D., & Mengliev, B. (2019). Semantic Tag Categories in Corpus Linguistics: Experience and examination. *International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE)*, 8(3S), 208–212. <https://doi.org/10.35940/ijrte.c1048.1083s19>
7. Sayfullayeva, R., Mengliyev, B., Boqiyeva, G., Qurbonova, M., Yunusova, Z., & Abuzalova, M. (2009). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. *Toshkent-2009*, 2.
8. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Baxtiyor\\_Mengliyev](https://uz.wikipedia.org/wiki/Baxtiyor_Mengliyev)
9. Xabibillayev N. IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI (2-QISM) //Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. – 2024. – Т. 3. – №. 9. – С. 18-20.
10. Xabibillayev N. Mumtoz Adabiyotni Targ‘Ib Etishda Adabiy Moslashtirishning Ahamiyati (—Lison Ut-Tayrl Ning Moslashtirilgan Matni Misolida) //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 16. – С. 65-71.
11. Habibullayev N. N. O. G. L. Qozoq Va O‘zbek Tilidagi Modal So‘Zlar Chog‘Ishtirmasi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 27-33.
12. Habibullayev N. N. O. G. L., QOZOQ V. A. O. Z. T. M. SO‘ZLAR CHOG‘ISHTIRMASI. – 2023.
13. Xabibillayev N. HOZIRGI O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA RAVISH MASALASI (1-qism) //Молодые ученые. – 2024. – Т. 2. – №. 22. – С. 17-22.
14. Dexqonboyeva M., Xabibillaev N. LEKSIKOLOGIYANING PREDMETI, VAZIFALARI VA BOSHQA TILSHUNOSLIK SOHALARI BILAN ALOQASI //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – №. 10. – С. 201-204.
15. Xabibillayev N. N. O. G. L. FONOLOGIK ZIDDIYATLAR VA ULARNING PARADIGMATIK TUZILMASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 9. – С. 296-301.
16. Nosirjon N. YORMAT TOJIYEV, ABDULHAMID NURMONOV, QALANDAR SAPAYEVNING MORFEMA BORASIDAGI QARASHLARI //Innovations in technology and science education. – 2024. – Т. 3. – №. 25. – С. 7-15.

17. O'GLI N. TRADITIONAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF MORPHEME IN UZBEK LINGUISTICS //AMERICAN JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES Учредители: The USA Journals. – 2024. – Т. 4. – №. 10. – С. 53-56.
18. QOBILOVA, Z., & AHMADALIYEV, L. (2025). “O‘ZBEK ADABIYOTI NAMUNA DAFTARI” TAZKIRASIDA ALISHER NAVOIY FAOLIYATINING YORITILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 183-189.
19. Ahmadaliyev, L. (2025). QAYUMOVLAR SULOLASI UY-MUZEYINI TASHKIL ETISHNING AMALIY AHAMIYATI. *University Research Base*, 382-398.
20. Ahmadaliyev, L. (2025). “O‘ZBEK ADABIYOTI NAMUNA DAFTARI” TAZKIRASINING ADABIY AHAMIYATI. *University Research Base*, 360-367.
21. Lochinbek, A. (2022). “XO‘QAND TARIXI VA UNING ADABIYOTI”-MANBA SIFATIDA. *OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI*, 250.
22. Muhammadyusuf o‘g‘li, A. L. (2024). KULFAT IJODINING O‘RGANILISHI. *UBS Scientific Bulletin*, (4), 94-105.